

TIJORAT BANKLARIDA DEPOZITLARNI BOSHQARISH ORQALI LIKVIDLILIKNI TA'MINLASH YO'LLARI

WAYS TO ENSURE LIQUIDITY THROUGH DEPOSIT MANAGEMENT IN COMMERCIAL BANKS

**¹Meyliyev Jasur
Zulfikarovich**

*¹O'zbekiston Respublikasi Bank-moliya
akademiyasi mustaqil izlanuvchisi*

Annotatsiya Abstract

Uzb. - Tijorat banklarining asosiy faoliyat turi sifatida jalb qilingan mablag'larni iqtisodiyotning vaqtincha pulga ehtiyoj mavjud bo'lgan tarmoqlariga besh tamoyil asosida kredit mablag'lari shaklida yo'naltirishi va qo'shimcha qiymat hosil qilishi hisoblanadi. Tijorat banklarining deposit bazasining yaxshi shakllantirilganligi bank likvidliligini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Maqolada respublika tijorat banklarining passivlari tarkibida depozitlarning ulushi, ularning optimal miqdori va bank faoliyatida depozitlarni jalb etish bilan bog'liq muammolar aniqlangan va ularni hal qilishga qaratilgan ilmiy takliflar ishlab chiqilgan.

Eng. - The main activity of commercial banks is to direct attracted funds in the form of credit funds to economic sectors that require temporary funds, based on five principles, and to create added value. A well-established deposit base of commercial banks plays an important role in ensuring bank liquidity. The article identifies the share of deposits in the structure of liabilities of commercial banks of the republic, their optimal size, and problems related to attracting deposits to banking activities, and develops scientific proposals aimed at their solution.

Kalit so'zlar: Keywords:

❖ *tijorat banki, depozit, brutto depozitlar, passiv, likvidlilik, valyuta riski, kredit, zarar, joriy likvidlilik koeffitsienti, daromad.*

❖ *commercial bank, deposit, gross deposits, liability, liquidity, currency risk, credit, loss, current liquidity ratio, income.*

Kirish.

O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 5-noyabrdagi "Banklar va bank faoliyati to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish haqidagi qonunining 5-moddasiga muvofiq banklarning moliyaviy operatsiyalari sifatida pul mablag'larini omonatlarga (depozitlarga) jalb etish va kreditlarni ularning qaytarilishi, foizlilik va muddatliligi sharti bilan o'z nomidan o'zining hamda jalb etilgan mablag'lar hisobidan berish amaliyotlari ta'kidlab o'tilgan [1]. O'zbekiston Respublikasi

bank tizimini isloh qilishning 2020-2025-yillarga mo'ljallangan strategiyasida esa banklarning moliyaviy barqarorligini oshirish va davlat ulushi mavjud bo'lgan banklarni bosqichma-bosqich xususiylashtirish orqali depozitlar bozorida erkin raqobatni shakllantirish, muvozanatlashgan makroiqtisodiy siyosat yuritish, korporativ boshqaruvni takomillashtirish masalalari alohida qayd etilgan. Shu bilan birgalikda xalqaro amaliy tajribaga ega bo'lgan menejerlarni jalb qilish, moliyaviy tavakkalchiliklarni baholash uchun texnologik

yechimlarni tatbiq etish orqali bank tizimining moliyaviy barqarorligini ta'minlashni mamlakat bank tizimini isloh qilishning ustuvor yo'nalishlari sifatida e'tirof etilganligi [2] tijorat banklarining faoliyatidagi likvidlilik riskini boshqarish amaliyotini takomillashtirish zaruriyatini yuzaga keltiradi.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi.

Rossiyalik olim O.I. Lavrushining fikricha, "tijorat banklarining resurslari yoki «banklarning resurslari» bankning ixtiyorida bo'lgan o'z jalb qilingan resurslarining yig'indisi bo'lib, uning aktiv operatsiyalarini amalga oshirishda ishlatiladi" deb ta'riflaydi [3].

Darhaqiqat, tijorat banklarining aktiv operatsiyalarining asosiy moliyalashtirish manbai bu bank resurslari ya'ni jismoniy va yuridik shaxslardan jalb qilingan depozitlardir. Tijorat banklarining aktiv operatsiyalarining diversifikatsiya darajasi yoki aktivlar sifati darajasining past bo'lishi, banklarda jalb etilgan depozitlarni qaytarilishini qiyinlashtiradi. Bu esa, o'z-o'zidan bankning likvidlilikiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Amerikalik iqtisodchi olim E.M. Rode "depozit – bank mijozlarining jamg'armadan tashqari barcha muddatli va muddatsiz quyilmalaridir" degan iqtisodiy talqinni ilgari suradi [4].

Yuqoridagi iqtisodchi olimning fikrini to'liq tasdiqlashning imkoni mavjud emas. Buning boisi, dunyo bank amaliyotida ham O'zbekiston Respublikasi bank tizimida ham depozitlarning asosiy 3 turidan foydalaniladi. Bular:

- ❖ talab qilib olinguncha saqlanadigan depozitlar;
- ❖ muddatli depozitlar;
- ❖ jamg'arma depozitlar.

L.Selikovaning xulosasiga ko'ra, likvidlilik, to'lovga qobillik, rentabellik tijorat banklarining raqobatbardoshligini tavsiflovchi muhim mezonlar hisoblanadi [5].

Tijorat banklarining samarali faoliyat ko'rsatishini ta'minlovchi va Markaziy bank tomonidan prudensial nazorati olib boriladigan asosiy ko'rsatkichlardan biri bankning likvidlilik ko'rsatkichidir. Bu esa bankning aktiv va passivlarini samarali boshqarish bilan bevosita bog'liq.

Professor T.I. Boboqulovning ta'kidlashicha "tijorat banki o'z mijozlarining bo'sh turgan mablag'larini qarzga olish bilan bir vaqtning o'zida, bu mablag'larni o'z vaqtida qaytarilishini ta'minlash majburiyatini ham oladi, Shuning uchun bank barqaror likvidlikka ega bo'lishi kerak. Ishonchlilik va likvidlilik tamoyillari tijorat banki mavjudligining zarur shartlaridan bo'lib, ular aholining bo'sh turgan pul mablag'larining bankka sari oqimini ta'minlaydi. Undan tashqari bankning ahvoli moliyaviy jihatdan kam samarali bo'lgan holatda mijozlar o'z mablag'larini qaytarib olishlariga ishonch hosil qilishlariga zamin yaratadi" [6].

B. Berdiyarovning xulosasiga ko'ra, tijorat banklari birlamchi zaxiralarining o'sish sur'atini depozitlarning o'sish sur'atidan ortda qolmasligini ta'minlash, yuqori likvidli aktivlarning jami aktivlar hajmidagi salmog'ining barqaror darajasiga erishish, hukumatning qimmatli qog'ozlariga qilingan investitsiyalarning jami aktivlar hajmidagi salmog'ining nisbatan yuqori va barqaror darajasini ta'minlash orqali tijorat banklarining joriy likvidlilikini ta'minlash lozim [7].

B. Berdiyarovning ushbu xulosasi respublikamiz tijorat banklari – Asakabank, Turonbank va Aloqabankning aktivlari va passivlariga oid bo'lgan ma'lumotlarning tahlillariga asoslangan bo'lib, tijorat banklarining raqobatbardoshligini ta'minlash nuqtayi-nazaridan muhim amaliy ahamiyat kasb etadi. Buning sababi shundaki, birinchidan, yuqori likvidli qimmatli qog'ozlarga qilingan investitsiyalar respublikamiz tijorat banklari aktivlarining umumiy hajmida nisbatan kichik salmoqni

egallaydi; ikkinchidan, tijorat banklari depozit bazasining yetarliligi ta'minlanmagan. Bu esa, tijorat banklarining likvidliligiga nisbatan salbiy ta'sirni yuzaga keltirmoqda.

Tadqiqot metodologiyasi.

Tijorat banklari depozitlarini boshqarishda ekspert baholash, ilmiy abstraksiya, tahlil va sintez, taqqoslash, induksiya hamda deduksiya metodlaridan foydalanildi.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Xalqaro tiklanish va taraqqiyot banki ekspertlarining tavsiyasiga ko'ra tijorat

banklarining brutto depozitlar hajmida talab qilib olinadigan depozitlar ulushi 30 foizdan oshmasligi ta'kidlangan. Bilganimizdek, talab qilib olinadigan depozitlar bu bank hisobvaraqlar rejasining 20200 - Talab qilib olinguncha saqlanadigan depozitlar bandida saqlanuvchi depozitlar bo'lib, bu resurslar banklar uchun beqaror resurs hisoblanadi. Uning brutto depozitlar hajmida ulushi ortishi va undan aktiv operatsiyalarni moliyalashtirishda foydalanish bank likvidliligi xatarga qo'yadi.

1-jadval

Aksiyadorlik – tijorat “Asakabank”ning depozitlar tarkibi, mlrd. so'mda

Depozit turi	Yillar				
	2020	2021	2022	2023	2024
<i>Talab qilib olinguncha depozitlar</i>	2,289	3,466	3,027	1,952	2,658
<i>Muddatli depozitlari</i>	5,365	7,592	9,080	10,455	14,329

*Jadval muallif tomonidan Asaka bankning moliyaviy hisobotlari ma'lumotlari asosida tuzilgan.

1-jadval ma'lumotlaridan aniq ko'rsa bo'ladiki, 2020-2024-yillarning birinchi choragida Asaka bankning depozit bazasida muddatli depozitlar salmog'i o'sish tendensiyasiga ega bo'lgan. Bu esa, Asaka bankning resurlari barqaror ekanligini va likvidlilik jihatidan ijobiy holatda ekanligini anglatadi.

1-jadvaldan aniq ko'rinadiki, Asaka bankning brutto depozitlar tarkibida 2020-2024-yillarda talab qilib olinadigan depozitlarning ulushi xalqaro e'tirof etilgan me'yorda bo'lganligini ko'rish mumkin. Bu esa, ushbu bankning likvidliligini ta'minlash jihatidan ijobiy holat hisoblanadi.

2-jadval

Aksiyadorlik – tijorat “Asakabank” ning kredit portfeli va undagi muammoli kredilar hajmi, mlrd. so'mda

Ko'rsatkichlar	Yillar				
	01.01.2021	01.01.2022	01.01.2023	01.01.2024	01.01.2025
<i>Kredit portfeli</i>	34 122	37 685	36 742	39 213	38 717
<i>Muammoli kreditlar</i>	1 109	1 819	1 707	1 731	1 752
<i>NPL darajasi (foizda)</i>	3,2	4,8	4,6	4,4	4,5


*Jadval muallif tomonidan Markaziy bank ma'lumotlari asosida tuzildi.

2-jadvalda o'z aksini topgan ma'lumotlardan yaqqol ko'rinadiki, Asakabankning kredit portfeli tahlil qilingan davrda o'sish tendensiyasiga ega bo'lgan. Bu esa, shu davrda bankning resurs bazasi

takomillashganligi va kreditlash salohiyati oshganligini ko'rsatadi. Bankning raqobatbardoshligi jihatidan qaraganda bu ijobiy holat hisoblanadi.

2-jadvalda o'z aksini topgan ma'lumotlardan yaqqol ko'rinadiki, Asakabankda tahlil qilingan davr mobaynida kredit portfelida muammoli kreditlar ulushi o'sish tendensiyasiga ega bo'lgan. Bu esa, bankda aktivlar sifati yomonlashganligi, kredit monitoring talab darajasida olib

borilmaganligi, bank jalb qilgan depozitlarni qaytarish riski ortganligi va bankning likvidlilik ko'rsatkichi pasayishiga olib keladi. Xalqaro me'yorlarga ko'ra kredit portfelida NPL darajasining normal holati 3 foizni va yo'l qo'yilishi mumkin bo'lgan darajasi 5 foiz etib belgilangan.



1-rasm. O'zmilliybank, Sanoatqurilishbank va Asaka banklarning taqqoslama ko'rsatkichlari¹, foizda

1-rasm ma'lumotlaridan ko'rinadiki, O'zbekiston Respublikasining 3 nafar yirik aksiyadorlik tijorat banklarida jami ajratilgan kreditlarning 30 foizdan oshig'i jalb etilgan depozitlar hisobidan moliyalashtirilgan. Bu esa, depozitlar barqarorligi o'z-o'zidan kredit portfelining sifatiga bog'liqligini anglatadi.

Xulosa va takliflar.

Tadqiqot jarayonida tijorat banklarida depozit barqarorligini boshqarish va likvidlilikni ta'minlash amaliyotini takomillashtirish bo'yicha quyidagi xulosalarni shakllantirdik:

❖ bank depozitlarining quyidagi uch turi mavjud:

- talab qilib olinguncha saqlanadigan depozitlar;
- muddatli depozitlar;
- jamg'arma depozitlar.

❖ tijorat banklarining aktiv operatsiyalarining diversifikatsiya darajasi yoki aktivlar sifati darajasining past bo'lishi,

banklarda jalb etilgan depozitlarni qaytarilishini qiyinlashtiradi;

❖ bank likvidliliği - tijorat banklarining samarali faoliyat ko'rsatishini ta'minlovchi va Markaziy bank tomonidan prudensial nazorati olib boriladigan asosiy ko'rsatkichlardan biri hisoblanadi;

❖ 2021-2025-yillarning birinchi choragida Asaka bankning depozit bazasida muddatli depozitlar salmog'i o'sish tendensiyasiga ega bo'lgan. Bu esa, Asaka bankning resurlari barqaror ekanligini va likvidlilik jihatidan ijobiy holatda ekanligini anglatadi;

❖ tijorat banklarining brutto depozitlar hajmida talab qilib olinadigan depozitlar ulushi 30 foizdan oshmasligi ta'kidlangan;

❖ Asakabankda tahlil qilingan davr mobaynida kredit portfelida muammoli kreditlar ulushi o'sish tendensiyasiga ega bo'lgan. Bu esa, bankda aktivlar sifati yomonlashganligi, kredit monitoring talab darajasida olib borilmaganligi, bank jalb qilgan

¹Rasm muallif tomonidan Markaziy bank ma'lumotlari asosida tuzildi.

depozitlarni qaytarish riski ortganligi va bankning likvidlilik ko'rsatkichi pasayishiga olib keladi;

Fikrimizcha, tijorat banklarining depozit barqarorligiga erishish orqali bank likvidlilikini ta'minlash uchun quyidagi tadbirlarni amalga oshirish lozim:

1. Tijorat banklarining depozit bazasining barqarorligiga erishish uchun, birinchidan, barqaror depozitlarning brutto depozitlar hajmidagi salmog'ini xalqaro bank amaliyotida umume'tirof etilgan me'yoriy darajadan (min 75 foiz) kam bo'lmasligini ta'minlash kerak; ikkinchidan, O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksiga o'zgartirish kiritish yo'li bilan mijozlarning talab qilib olinguncha depozit hisobraqamlaridagi mablag'larni muddatli yoki depozit hisobraqamiga olmasdan turib, ulardan foydalanishni banklar uchun ta'qiqlab qo'yish zarur; uchinchidan, tijorat banklarining muddatli depozitlariga nisbatan Markaziy bank tomonidan belgilangan majburiy zaxira stavkalari kamid 50 foizga pasaytirilishi va zaxira ajratmalari summasi tijorat banklarining "Nostro" vakillik hisobraqamidan olib qo'yilmasligi lozim.

O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining bergan ma'lumotlariga ko'ra, 2025-yilning 1-noyabr holatiga Respublikamiz

tijorat banklarining jami depozit portfeli 377 565,0 mlrd. so'mni tashkil etgan holda talab qilib olinguncha saqlanadigan depozitlar 110 113,0 mlrd. so'mni yoki jami depozitlarning 29,2 foizini tashkil etgan [8]. Bu esa banklarning likvidlilikini ta'minlash jihatdan salbiy holat hisoblanadi.

2. Tijorat banklarining joriy likvidlilik darajasini oshirish uchun, birinchidan, banklarning boshqa banklarning 1-yildan ortiq muddatga chiqarilgan obligatsiyalariga qilingan investitsiyalari Markaziy bank tomonidan yuqori likvidli aktiv sifatida tan olinishi kerak; ikkinchidan, muddatli va jamg'arma depozitlarining brutto depozitlarning umumiy hajmidagi salmog'ini oshirish yo'li bilan likvidlilikni qoplash me'yori koeffitsiyentining darajasini oshirish zarur; uchinchidan, transaksion depozitlarning o'sish sur'ati bilan yuqori likvidli muddatsiz aktivlarning (kassalardagi naqd pullar, bankning milliy valyutada va xorijiy valyutalarda ochilgan "Nostro" vakillik hisobraqamlaridagi pullar, suveren kredit reytingi yuqori bo'lgan banklar tomonidan muomalaga chiqarilgan nokumulyativ imtiyozli aksiyalarga qilingan investitsiyalar) o'sish sur'ati o'rtasidagi mutanosiblikni ta'minlash lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1 O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 5-noyabrdagi "Banklar va bank faoliyati to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish haqida"gi O'RQ-580-sonli qonuni.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 12-maydagi "2020 – 2025-yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to'g'risida"gi PF-5992-sonli farmoni.

3. Банковское дело / Под ред. И.О. Лаврушина. – М.: Финансы и статистика, 1998. – С. 68.

4. Родэ Е.М. Банки, биржи, валюты современного капитализма. – М.: Дело LTD, 1995. – С. 148.

5. Селикова Л.В. Конкурентоспособность субъектов рынка и механизм её оценки // Вестник Московского университета. Серия 6: Экономика. – 2000. – № 2. – С. 57–67.6.

6. Boboqulov T.I. Tijorat banklari resurslarini boshqarish: Ma'ruzalar matni. T: 2017. – 15 b.

7. Berdiyarov B.T O'zbekiston Respublikasi tijorat banklarining likvidliliqi va to'lov qobiliyatini ta'minlash masalalari. I.f.d. diss. avtoref. – Toshkent, 2020. – 73 b.

8. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki ma'lumotlari - www.cbu.uz